Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



DAVLAT BUDJETI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ataxanov Bekpo'lat Abdullayevich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjetining ilmiy ahamiyati hamda davlat moliyasidagi o'rni, davlat moliyaviy nazorati tizimlarining budjet jarayonida budjet daromadlari va xarajatlarning shakllantirilishi va uning ijrosida moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi nazariy qoidalar keltirilgan bo'lib, maqolada keltirilgan nazariy xulosalar va berilgan takliflardan budjet jarayonida davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilash va foydalanish bilan izohlangan. Shuningdek, maqolada taniqli iqtisodchi olimlarning mavzu borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Davlat moliyasi, davlat budjeti, mahalliy budjet, soliq, daromad, xarajat, moliya tizimi, budjet profitsiti, budjet defitsiti.

STATE BUDGET PROCESS IMPROVEMENT ISSUES

Abstract: This article presents the scientific significance of the state budget and its role in state finance, the formation of budget revenues and expenses in the budget process of state financial control systems, and the theoretical rules for financial control in its execution. It is explained with the definition and use of system development perspectives. Also, the article reflects the scientific-theoretical views of well-known economists on the subject.

Key words: State finance, state budget, local budget, tax, income, expenditure, financial system, budget surplus, budget deficit.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА

Аннотация: В данной статье представлены научная значимость государственного бюджета и его роль в государственных финансах, формирование доходов и расходов бюджета в бюджетном процессе систем государственного финансового контроля, а также теоретические правила финансового контроля при его исполнении. определение и использование перспектив развития системы. Также в статье отражены научно-теоретические взгляды известных экономистов по данному вопросу.

Ключевые слова: Государственные финансы, государственный бюджет, местный бюджет, налог, доходы, расходы, финансовая система, профицит бюджета, дефицит бюджета.

KIRISH

Jahon mamlakatlarning moliyaviy institutlari amaliyotidan ma'lumki, davlat moliyasi, jumladan davlat budjeti tizimini rivojlantirish, budjet daromadlari va xarajatlarni samaradorligini oshirish hamda natijadorligini ta'minlashda izchil davlat moliyaviy nazorat tizimi shuningdek, nazoratni ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish talab etiladi. Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida nazoratning nazariy va amaliy asoslarini belgilash, davlat moliyaviy nazoratini standartlashtirish va uni rivojlantirish, nazoratning samaradorligini oshirish kabi masalalar dolzarblik kasb etadi.

Jahon amaliyotda Lima deklaratsiyasi va Meksikaning Oliy nazorat organlarining mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyalarida dunyo mamlakatlarning budjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda ^[1]. Ushbu chora-tadbirlar har qanday mamlakatda, davlat moliyaviy nazoratining institutsional asoslari va standartlari – tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda aniq belgilangan natijalarga erishishni ta'minlash uchun mo'ljallangan davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishning ajralmas instrumentlari hisoblanadi ^[2]. Bu borada taraqqiy etgan davlatlar tajribasi va erishayotgan ilmiy yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish davlat moliyaviy nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish, budjet tizimida samarali islohotlarni amalga oshirish va, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda budjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun muhim omil hisoblanadi.



O'zbekiston moliya tizimida, jumladan, davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohatlar budjet tizimi budjetlarining barqarorligini, shuningdek, budjet mablag'larini manzilli va maqsadlilikini, natijadorligini ta'minlash hamda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Ushbu islohatlarni amalga oshirishda "Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish" ^[3] vazifasi zarur hisoblanadi. Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratining muammolarini har tomonlama o'rganish, birinchidan, nazorat tadbirlari natijalarini amalga oshirishdagi muammolarning mavjudligi, ikkinchidan, zaruriy uslubiy ta'minotning mukammal darajada emasligi, ya'ni nazorat standartlarining yetarli emasligi va uchinchidan, budjet jarayonida nazorat samaradorligini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bilan izohlanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat moliyaviy nazoratini samaradorligini oshirishni hamda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor L. A. Drobozina "Davlat budjeti - pul mablag'larining asosiy markazlashtirilgan fondi [4]", deb ta'kidlaydi. Professor A. Yu. Kazak esa "Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida va muhim moliyaviy to'g'rilovchi sifatida pul munosabatlarining majmuasidir" ^[5] deb ta'kidlaydi. Mazkur ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlarning budjet kategoriyasiga yondashuvida mantiqning yaxlit qoidasiga rioya qilinmaydi.

Fikrimizcha, davlat budjeti tushunchasida uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi talqinlarini bir - biridan farqlash lozimdir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet obyektiv xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Budjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati uning funksiyalarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Budjetning iqtisodiy mazmunini yoritishga bag'ishlangan moliyaviy – iqtisodiy adabiyotlarda budjetning funksiyalari nuqtayi nazaridan turli iqtisodchilarning mantiq xarakterdagi fikr-mulohazalarini kuzatishimiz mumkin.

Budjet - moliya sohasida qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan professor G. Romanovskiy budjetning bajaradigan funksiyalari sifatida budjet fondini shallantirish, budjet fondidan foydalanish va nazorat kabi elementlarni talqin qiladi ^[6].

Masalan, V. M. Rodionova budjetni taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishni talqin qiladi. Shuningdek, muallif moliyaga tegishli funksiyalar sifatida ham taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini ham talqin qiladi ^[7]. Shuningdek, aksariyat adabiyotlarda budjet tizimi barcha darajalardagi budjetlarning majmuasi sifatida yoritiladi.

Xorij olimi professor G. B. Polyakning fikriga ko'ra, "Budjet tizimi – iqtisodiy munosabatlar, davlat qurilmasi va huquq me'yorlariga asoslangan davlat, ma'muriy – hududiy birlashmalar budjetlari, budjet munosabatlarida mustaqil muassasalar va fondlarning majmuasidir" ^[8].

Shuningdek, budjetlar daromadlarini tartibga solish masalalarini tadqiq etishning ayrim jihatlari mahalliy iqtisodchi olimlar M. Almardonov ^[9], A. Vaxobov ^[10], J. Esmurzayev, A. Jo'rayev ^[11], N. Jumayev ^[12], J. Zaynalov ^[13], A. Islamkulov ^[14], T. Malikov ^[15], A. Mamanazarov, O. Olimjonov ^[16], Z. Ruziyev, Sh. Toshmatov ^[17], B. Toshmurodovlar ^[18] ilmiy ishlarida bevosita va bilvosita tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODIKASI

Davlat budjeti mavzusini tadqiq etishda foydalaniladigan bir nechta tadqiqot metodologiyalari mavjud. Bu metodologiyalar o'zaro bog'liqlik ko'rsatadigan, moliyalashtirish jarayonlarini va natijalarini tahlil etishga yordam beradigan, usullardir.


TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Davlatning budjet tizimining birlamchi asosini rejalashtirish hisoblanadi. Rejalashtirish o'z navbatida tarkibiy jihatdan daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishni qamrab oladi. Budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish garchi, ular mazmunan pul mablag'larining harakatlarini rejalashtirishga xizmat qilsada, ularning har birining o'ziga xos xususiyatli jihatlari mavjuddir. Aslini olganda fikrimizcha, budjetning daromadlarini rejalashtirish undan qilinadigan xarajatlarning moliyaviy manbasini aniqlashga xizmat qiladi, shu jihatdan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash asosida ularning ma'lum bir qismini jamiyat manfaatlariga mos ravishda qayta taqsimlashni amalga oshiradi, pul oqimlarining harakatini ta'minlaydi. Davlat o'zining iqtisodiy funksiyasini bajarish maqsadida markazlashtirilgan pul fondlari shaklidagi davlat budjeti orqali milliy iqtisodiyotni bir maromda boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun unga zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larga ega bo'lishning muhim vositasi sifatida tashkil qilingan budjet tizimi budjetlarini shakllantirishga iqtisodiy zaruriyat tug'iladi. Bu iqtisodiy zaruriyat esa turli darajadagi (davlat, mahalliy, munitsial) budjetlarni taqozo etadi ^[19].

Jahon moliyaviy amaliyotida rivojlangan davlatlar tajribasidan xulosa qilish kerakki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, budget daromadlari va xarajatlarining maqsadlilikini va samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning izchil nazoratini ta'minlashga xizmat qiladigan zamonaviy moliya tizimini takomillashtirishni talab qiladi. "Germaniya, Sloveniya va Ispaniya kabi davlatlar o'zlarining YalMning 30-40 foizini davlat budjeti vositasida qayta taqsimlaydilar" ^[20]. Bunda moliya tizimining samarali faoliyat ko'rsatishida g'aznachilik va uning tashkiliy tuzilmasi muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida budgetning daromadlar qismining son va sifat jihatdan ta'minlaydigan, xarajatlar qismida esa budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlaydigan g'aznachilikni yanada takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyo amaliyotidan ma'lumki, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan budget mablag'laridan samarali foydalanish, davlat budjeti ijrosi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda ushbu tadqiqotlar natijasida yagona tizimi sifatida davlat aktiv va majburiyatlarini hisobini yuritishni qo'llash, natijaga yo'naltirilgan budget ijrosi, budget jarayonini sharoitida real vaqt rejimida uzluksiz elektron hujjatlar aylanish tizimi joriy etish, davlat qarzini boshqarish, to'lovlarni yagona hisobvaraqdan to'g'ridan-to'g'ri budget birliklari tomonidan mustaqil amalga oshirish, shuningdek, tahlil qilish va hisobini yuritgan holda milliy iqtisodiyotga joriy etishning afzalliklarini belgilab beradi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasi va ilmiy yutuqlarini tadqiq etish g'aznachilik tizimini taraqqiyoti uchun, shuningdek, tizimlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning barcha soha-lariga tegishli qonunchilik baza yaratilishi va o'z navbatida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligining mustah-kamlanishi, budget mablag'laridan samarali foydalanish va o'z navbatida mamlakatning xalqaro reytingida o'rni yuksalishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Budget tizimi Respublika budjeti va barcha mahalliy budgetlarning jamlanmasi hisoblanadi. U davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimiga hamda respublikaning ma'muriy-hududiy bo'linishiga asoslanadi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilmasi ^[21]


Budget tizimining ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tamoyillari, tuzilishi unda birlashib ketadigan budgetlarning o'zaro aloqadorligini, davlat budjeti tuzilmasini belgilaydi.

Budget kodeksining 172-moddasida ^[22] davlat moliyaviy nazorati, shuningdek, alohida hujjatlarda ^[23] davlat moliyaviy nazorati organining tamoyillari qabul qilingan. Jahon tajribasidan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazoratida maqsadga muvofiqlik va samaradorlikni tamoyil sifatida belgilansa moliyaviy nazoratning sifati va samarasini oshiradi.

Shu bilan birga davlat moliyaviy nazoratining ochiqlik tamoyiliga ko'ra Hisob palatasi shuningdek, vako-latli nazorat organlarining ma'lumotlari o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borilsa va o'z faoliyati to'g'risida jamoatchilik oldida hisobot berilsa, bu davlat moliyaviy nazorati tizimini natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Budget jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratining tekshirish, taftish, o'rganish ^[24] kabi maxsus shakllari, turlari va usullariga to'xtalib o'tish muhim. Amaliyotda eng muhimi ulardan foydalanishning muammoli jihat-lariga e'tibor qaratish hisoblanadi.

Budget jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratini shakllarini (2-rasmga qarang) ajratilishi amalda bu nazorat alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirish xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi.



2-rasm: Budjet jarayonlari ustidan davlat moliyaviy nazorati shakllari ^[25]

Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratini nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish, tizimning barcha asosiy elementlari bilan tavsiflanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan nazoratning o'ziga xosligi amalga oshirilayotgan budjet siyosatiga bog'liq bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari, o'z navbatida, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ta'sir qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati bu bir tartib tizim. Elementlarning har qanday tizimda bog'liqligi, butunning o'zaro hamkorligi qonunlariga bo'ysunadi. Ularni yagona tizimga birlashtirishda uning xususiyatlari uning tarkibiy qismlarining yig'indisidan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazorati tizimining mohiyatini uning alohida qismlari va xususiyatlaridan to'liq bilishning iloji yo'q. Bu murakkab tizimning xususiyatlari alohida qismlar xususiyatlaridan iborat bo'lmaydi. Tizimdagi tarkibiy o'zgarishlar butun sifatida tizim rivojlanishining umumiy qonunlariga bo'ysunuvchi elementlar xususiyatlari o'zgarishini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida birinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimini taqdim etish vositalarini ishlab chiqishni, ikkinchidan, turli nazorat organlari yoki ularning guruhlar (javobgarlik markazlari) - davlat moliyaviy nazorati tizimining tashkiliy asosi o'rtasidagi integrativ bog'liqliklarni talqin etishni, uchinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimining asosiy elementlarini aniqlashni va to'rtinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimi rivojlantirish yo'llarini belgilashni talab etadi.

Mamlakat boshqaruvining faoliyatini moddiy jihatdan ta'minlash va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat budjeti daromadlari asosiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: 2017–2022-yillarda YaIMdagi Davlat budjeti daromadlar hajmini soliqlar kesimida o'sish tendensiyasi ^[25]

№	Ko'rsatkichlar	Ijro qilish, mlrd. so'm					YaIM hajmiga nisbatan (foiz)				
		2017	2019	2020	2021	2022	2017	2019	2020	2021	2022
1	Yalpi ichki mahsulot	249136,4	532712,5	605514,9	738425,2	888341,7	100	100	100	100	100
2	Daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz) – jami	49684,8	112165,4	132938,0	164800,0	201900,0	20,0	21,0	21,9	22,3	22,7
3	Bevosita soliqlar	11538,9	31676,8	45206,9	58900,0	64400,0	4,6	5,9	7,5	8,0	7,2
4	Bilvosita soliqlar	26133,6	46427,3	46428,4	56300,0	71400,0	10,5	8,7	7,7	7,6	8,0
5	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	6867,4	19680,7	21257,0	23000,0	23900,0	2,8	3,7	3,5	3,1	2,7
6	Boshqa daromadlar	5144,8	14380,7	20045,8	26600,0	42200,0	2,1	2,7	3,3	3,6	4,7

So'nggi yillarda davlat moliyasi sohasida olib borilgan islohotlar natijasida (1-jadvalga qarang) 2017–2022-yillarda davlat budjeti daromadlari o'sish barqarorligini saqlab qolgan. Jumladan, 2020-yilda Davlat budjeti daromadlari ijrosi 2019-yilga nisbatan 118,5 foizga, 2017-yilga nisbatan 2 barobardan ortiq (232,8%) oshganligini ko'rish mumkin. 2020-yilda 2017-yilga nisbatan o'sish 114,0 foizni, 2022-yilda 2017-yilga nisbatan to'rt barobardan ortiq (406,3) o'sgan va 2020-yilga nisbatan esa 50 foizga oshgan.

Daromadlarning yalpi ichki mahsulotdagi (keyingi o'rinlarda – YaIM) ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Agar daromadlarning YaIM dagi ulushi 2017-yilda 20,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 22,7 foizni tashkil etgan.



Davlat budjetining daromadlari ijrosi o'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi avtomatlashtirilgan tizimi dasturi asosida amalga oshirilayotganligi, daromad tushumlarini o'z vaqtida yig'ilayotganligi va aniq hisobining yuritilishi o'ziga xos imkoniyatlar yaratgan. Yagona g'azna hisobvarag'idagi bo'sh turgan mablag'lardan so'nggi uch yilda 500,0 mlrd. so'mdan ortiq daromad olingan.

Davlat budjeti xarajatlari budjetdan mablag' oluvchilarning maqsadli pul fondlarini shakllantirishda namoyon bo'ladi va o'zida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. Davlat budjetining asosiy vazifasi – davlatning fiskal siyosati mohiyati va yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi [26].

2-jadval: O'zbekiston Respublikasi budjet xarajatlarini o'sish dinamikasi (mlrd. so'm) [25]

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Yillar					Yillarga nisbatan			
		2017	2019	2020	2021	2022	2019/ 2017	2020/ 2019	2021/ 2020	2022/ 2021
	XARAJATLAR (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami	49344,9	118008,7	144142,7	188257,1	225600	239,2	122,2	130,6	119,8
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shundan:	26922,7	3542,4	74231,8	92013,6	106600	236,0	117,0	123,9	102,7
	- Maorif	15977,7	33536,1	29961	39640,8	50271,3	210	89,3	132,3	126,8
	- Sog'liqni saqlash	7030,30	14977,4	19397,20	23316,8	27288,3	213	129,5	120,2	117
	- Madaniyat va sport	750,2	2417,3	2340,7	3609,5	4289,6	322,2	97,0	154,2	119
	- Fan	275,6	662,4	823,8	1081,6	1447,1	240,4	124,4	131,3	133,8
	- Ijtimoiy ta'minot	2239,6	2337,1	3247,9	6069,4	20103,7	1260,3	55,0	186,1	331,2
	- Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturi	214,0	4125,7	1938,2	597,5	1010,8	1 928,0	47,0	30,8	169,2
2	NNT, NST va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish	12,0	37,8	47,5	95,6	103,5	315,0	126,0	201,2	108,2
3	Iqtisodiyot xarajatlari	5280,7	18485,2	16692,8	21169,7	34090,9	350,1	90,3	126,8	161,0
4	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	3234,8	7048,5	18843,7	29900,1	27807,0	218,0	267,3	158,7	93,0
5	Davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish	2431,5	5315,0	7826,4	10366,1	13551,6	218,6	147,3	132,4	110,6
6	Boshqa xarajatlar	11463,2	20804,1	22360,3	1072	43447,0	199,6	98	139	140

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohatlarda Davlat budjeti xarajatlari ham so'nggi 2017–2022-yillarda o'sishni qayt etgan, jumladan, bu ko'rsatkich, 2019-yil 2017-yilga nisbatan 2 barobardan ortiq o'sgan va 2022-yil 2019-yilga nisbatan esa qariyb 2 barobarga ham o'sish qayd etilgan (2-jadvalga qarang).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti, bir mamlakatning moliyaviy operatsiyalarini tartibga soluvchi qonuniy hujjatdir. Ushbu budjet, davlatning daromadlarini, xarajatlarini, investitsiyalarini, qarzlarini, defitsit va profitsitini belgilaydi. Davlat budjeti, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, infrastruktur va boshqa sohalarga moliyalashtirishni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

1. Budjet jarayonini monitoring va nazoratni amalga oshirishda mavjud bo'lgan va qo'llaniladigan uslubiyotni jumladan, davlat moliyaviy nazoratni standartlashtirish va uni rivojlantirish muhim va zaruriy masalalardan biri hisoblanadi. Standartlarning maqsadi nazoratning sifati, samaradorligi, shuningdek, moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi, izchilligi, shaffof va xolisligini ta'minlaydigan yagona talablarni belgilaydi. Mamlakatda xalqaro tan olingan nazorat standartlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
2. Xarajatlar tizimining samaradorlik va natijaviylik sifatini oshirish uchun xarajatlarni tahlil qilish va boshqa moliyaviy resurslarni samaradorlik bilan taqsimlash kerak. Xarajatlarni maqsadlarga yo'naltirish, israfni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun tahlil va baholash jarayonlarini mustahkamlash muhimdir.



3. Davlat budjetining moliyalashtirish jarayonlarini kuzatish, natijalarni baholash va budjetning maqsadlarga mosligini baholash tizimini rivojlantirish kerak. Monitoring va baholash jarayonlarining samaradorlik va ommaviylik prinsiplariga muvofiq shakllanishi, moliyaviy hisob-kitobning to'g'ri va yuqori sifatda olib borilishi muhimdir
4. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri katta imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy nazorat usuli sifatida yuqori baholangan va xalqaro miqyosda tan olingan davlat moliyaviy nazoratning mustaqil turi sifatida shakllangan samaradorlik auditi institutidan foydalanish nazorat samarasini va unig natijadorligini oshiradi.
5. Budjet tizimi budjetlari jarayonlarida davlat moliyaviy nazorati tamoyillari, uning asosiy elementlarini takomillashtirish nazoratning natijadorligini oshiradi. Shuning uchun maqsadga muvofiqlik va samaradorlik tamoyillaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Официальный сайт Европейской организации высших органов финансового контроля (EUROSAI).
2. Perez M. International auditing standards and the external control of the public sector//EUROSAI. – 2011. – № 17. – P.132-13.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 3-ilova, 4-maqсад, 15-band.
4. Л.А.Дробозина "Финансы", учебник для вузов, Поляка Г.Б., 2004.
5. А.Ю. Казак "Финансы и кредит": Учебник / А.Ю. Казак и др.; под ред. А.Ю. Казака. – Екатеринбург, 1994.
6. Романовский Г. Бюджетная система РФ. – М.: 1998. Финансы и статистика.
7. Родионова В. Финансы. – М.: 1995. Финансы и статистика.
8. Поляк Г.Б. Бюджетная система РФ. – М.: ЮНИТИ, 2001.
9. Alimardonov M. – Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta'siri. Monografiya. – T.: TMI, 2003.-233 b.
10. Vaxobov A., Jurayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: "Shark", 2009. – 488 b.
11. Jurayev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. i.f.d.ilmij darajasini olish uchun takdim etilgan diss. avtoreferati.-T.: DJKA, 2005. – 38 b.
12. Vaxobov A, Burxonov U, Jumayev N. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik.-T.: "Yangi asr avlodi". 2003.– 344 b.
13. Zaynalov J.R. Soliqlar va soliqqa tortish.– S.: Samarqand kooperativ instituti, 2002. – 366 b.
14. Islankulov A. Budjetlararo munosabatlarni soliqlar vositasida tartibga solish. Monografiya. -T.: "Lesson Press", 2021.- 275 b.
15. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: "Akademiya", 2002.– 204 b.
16. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 800 b.
17. Toshmatov Sh.A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan diss. avtoreferati. – T.: 2008.-38 b.
18. Toshmurodova B.E. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan diss. Avtoreferati. – T.:2007.-32 b.;
19. J.A.Ergashev - Mahalliy budjet daromadlarini prognozlashtirish hamda daromadlarni oshirish masalalari. Monografiya. – T.: "Iqtisodiyot". 2023 yil. 132 bet.
20. Гилёва А.А. Формирование и использование общего бюджета Е.С. Диссертация. – Москва-2011.
21. Kasimova G.A., Shakramov K.K. – Mahalliy budjetlar. O'quv qo'llanma – T.: "Moliya", 2012. – 260 b.
22. Budjet kodeksining 172-moddasi. <https://lex.uz/acts/2304138>
23. O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risidagi qonuni. 5-moddasi. <https://lex.uz/docs/4394324>
24. Budjet kodeksining 173-moddasi. <https://lex.uz/acts/2304138>
25. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
26. Qurbonov H., Bijanova M. Davlat budjeti xarajatlarining amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi ahamiyati. [https://Biznes-daily.uz/ru/27 okt. 2015 y. №9 \(93\)-2015](https://Biznes-daily.uz/ru/27%20okt.%202015%20y.%20№9%20(93)-2015).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.